

BIZNESDA BUXGALTERIYA HISOBOTLARI**Tursunov Faridun Mustafoyevich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Bank ishi” kafedrasi assistenti

tursunovfaridun4330@gmail.com**Samatova Feruza Bahromovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis institut talabasi

Akramovna Nozima Azamatovna

Samarqand iqtisodiyot va servis institut talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolamizda buxgalteriya hisobi tizimi haqida tushuncha berilishi bilan bir qatorda, bugungi kunda bu tizimning holati va faoliyati haqida bir qancha ma'lumotlar keltirildi. Shu bilan birga maqolada byudjet tashkilotlarida hisob siyosatini yuritish masalalari haqida fikr-mulohazalar bayon etildi.

Kalit so'zlar: Hisob, buxgalteriya, moliya, subyekt, tamoyil, soliq, byudjet, korxona, tashkilot, farmon.

KIRISH Ma'lumki, hisobot, korxona, birlashma, uyushma, konsern, korporatsiya, aksiyodorlik jamiyati va shu kabilaming o'tgan vaqt ichidagi ishlari natijalari va sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui bo'lib, u xo'jalik faoliyatini tahlil, nazorat qilish va boshqarish maqsadida tegishli subyektlarga topshiriladi. Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar, ulaming ishlab chiqarish xarajatlari, xo'jalik mablag'lari va ulaming tashkil bo'lish manbalari, ishlaming moliyaviy natijalari, soliqqa tortish va dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlami o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobi yordamida xo'jalikda mavjud bo'lган har xil turdag'i moddiy qiymatliklar va pul mablag'larining miqdori, boshqa korxona va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarning holati, undagi boshqa resurslarning umumiy hajmi haqida ma'lumotlar olinadi; tayyorlangan materiallar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi va tannarxi aniqlanadi; xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari - foyda (sof daromad) yoki zarar hisoblab chiqiladi; korxonaning rentabelligi hamda korxona va uning tarkibiy qismlarining boshqa qator ko'rsatkichlari hisoblab aniqlanadi. Buxgalteriya hisobida ham, tezkor va statistika hisobidagi kabi, barcha o'lchagichlar - natura, mehnat va pul o'lchagichlari qo'llaniladi. Lekin unda pul (qiymatli) o'lchagichga alohida ahamiyat beriladi, chunki u buxgalteriya hisobining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarini olish imkonini beradi. Shuning uchun pul o'lchagichda buxgalteriya hisobining barcha ob'ektlari, garchi ular natura va mexat o'lchagichlarida aks ettirilgan bo'lsa ham, albatta, pul o'lchagichida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA Pul o'lchagichi yordamida buxgalteriya hisobi korxonaning barcha mablag'lari hajmi, ishlab chiqarishga qilingan harajatlar, davr harajatlari, ko'zda tutilmagan harajatlar, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, realizatsiyadan olingan yalpi tushum, morjinal (eng katta yalpi) foyda kabilarni beradi. Buxgalteriya hisobining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda barcha xo'jalik operatsiyalari yoppasiga qayd qilinadi. Bu narsa barcha xo'jalik jarayonlarining to'la tavsifini olish uchun zarurdir. Buxgalteriya hisobining boshqa xususiyati, uning hujjatlanishidir. Buxgalteriya hisobi tizimida

qayd qilinadigan har bir muomala dastlab hujjatlashtirilishi kerak. Hujjat buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining yagona manbai hisoblanadi. Barcha muomalalarni qamrab oladigan hujjatlarning mavjudligi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan nazorat qilish uchun foydalanish va boshqarish uchun asoslangan ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi. Buxgalteriya hisobida yig'ma yakunlangan ko'rsatkichlarni olish uchun yig'ilgan ma'lumotlarni ilmiy ishlashning maxsus usullaridan foydalaniladi. Bu usullarning muhim xususiyatlari shundan iboratki, ular alohida ajratib olingan korxona, tashkilotlar va muassasalarning butun xo'jalik faoliyatini uzluksiz va o'zaro bog'langan holda aks ettirilishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobini shunday tashkil etish kerakki, u tejamli bo'lib, kam mablag' sarflangan holda ichki va tashqi foydalanuvchilarni ko'proq axborotlar bilan ta'minlansin. Bozor munosabatlariga o'tish va davlat mulkini xususiylashtirish xo'jalik yuritishning mazmuni, tuzilishi va psixologiyasida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'z navbatida, buxgalteriya hisobida tub o'zgarishlarni talab qiladi. Buxgalteriya hisobi xalqaro biznes tili sifatida davlat qonunlarini bajarilishini kafolatlashi, tadbirkorlikni rivojlantirishiga mulkni saqlash va ko'payishiga xizmat qilishi, manfaatdor (investorlar, aktsiyadorlar, banklar, fondlar, mol yuboruvchilar, mol oluvchilar, rasmiy organlar va sh.k.) lar tomonidan muhim iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda (kapitalini investitsiya qilish, bozorga chiqish, xodimlarni yollash, soliq siyosati, moliyalash manbalarini qidirib topish, hisoblashishlar va sh.k.) zarur bo'ladigan to'liq va ishonarli axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish kerak.

MUHOKAMA Buxgalteriya hisobini hozirgi zamон talabi darajasida tashkil etish quyidagi kompleks tadbirlar bilan ta'minlanadi:

- 1.Buxgalteriya hisobini qonuniy tartibga solish va uning me'yoriy bazasini shakllantirish;
- 2.Uslubiy ta'minot (yo'riqnomalar uslubiy ko'rsatmalar, sharxlar) bilan;
- 3.Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan;
- 4.Xalqaro professional tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'li bilan;
- 5.Hisobni boshqarish tizimini qaytadan tashkil etish yo'li bilan.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyati jarayonlari, aktivlar, ularning manbalari va oxirgi moliyaviy natijalarni aks ettirishni makon va zamonda, dialektik harakatda amalga oshiradi. Aynan shunday yondashish buxgalteriya hisobining metodini ifodalaydi. Buxgalteriya hisobining metodining mohiyati unda qo'llaniladigan usullarda yorqin namoyon bo'ladi. Buxgalteriya hisobi tizimi faoliyatini baholash xususida to'xtalar ekanmiz, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xolis tekshiruvdan o'tkazish, ularning realligini ekspert qilish , shu asosda moliyaviy hisobotga xolis xulosa berish, shuningdek mayjud xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha kasbiy maslahatlarni berish, hisob-kitoblarni tiklash va yuritib berish, biznes reja va soliq deklaratsiyalarini tuzib berishdan iborot maxsus «audit» deb atalmish faoliyat turini vujudga kelishiga asos solganligini alohida ta'kidlash kerak. «Audit- bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni, bu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishi», deb ta'kidlaydi professor M.M. To'laxo'jayeva. «Audit (auditing) –bu dahlsiz kompetent xodim tomonidan axborotlarni belgilangan mezonlarga mosligini aniqlash va xolisona xulosa berishi maqsadida xo'jalik tizimi to'g'risidagi axborotlarni to'plash va baholash jarayoni».

NATIJA Auditning mohiyati – bozor iqtisodiyoti sharoitida uning obyektiv iqtisodiy taraqqiyot qonunlari, kategoriyalari, xalqaro hamjamiyatda tan olingan hamda ayrim olingan bir konkret mamlakatda amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarning talablariga mos tekshiruv obyektida uning barcha faoliyatlarini raqamlar yordamida ifodalangan, maxsus tizim asosida xulosa va takliflar berishdan iborat», deb yozadi professor N.Sanayev. Professor X.N.Musayev auditning mohiyatini quyidagicha e'tirof etgan:

«audit –bu muayyan vakolatlar berilgan shaxslar, ya'ni auditorlar tomonidan xo'jalik yuritayotgan subyektlar faoliyatlarining respublikada qabul qilingan qonun-qoidalarga muvofiqligini tekshirish yo'li bilan baholash va xolisona xulosalar berishdir» Tizim sifatida audit jamiyat miqiyosida mavjud bo'ladi. Yaxlit tizimni tashkil etuvchi auditni ichki va tashqi auditga bo'lish mumkin. Ichki audit iqtisodiyotning quyi bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki nazorat vositasi hisoblanadi. Tashqi audit davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatlari nuqtai nazaridan mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan nazorat vositasi hisoblanadi. Tashqi audit davlat tomonidan me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Auditning mohiyati uning tarkibiy komponentlarining mazmunida yorqin namoyon bo'ladi. Bunday komponentlar quyidagilardir. Ichki nazorat –bu xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy – xo'jalik faoliyatini rahbariyat tomonidan tasdiqlangan maxsus Nizom asosida doimiy nazorat qilib boruvchi bo'limning yoki xodimning (xodimlarning) ish faoliyati. Bunday nazoratni ichki audit bo'limi yoki ichki auditorlar olib borishlari mumkin. Tashqi nazorat –bu mustaqil auditorlik tashkilotlarining shartnoma asosida korxonalarda yuz bergen hodisa va jarayonlarni, ularning natijalarini qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga mosligini tekshirish bo'yicha olib borgan ish faoliyati. Iqtisodiy tahlil – bu moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari asosida korxonalarining moliyaviy –xo'jalik faoliyati va uning natijalarini qo'yilgan maqsad va talablarga ko'ra dinamik va statik jihatdan izohlab berish bo'yicha olib borilgan ish faoliyati.

xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Har bir korxonada tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini uzlusiz kuzatish va uning natijalarini son ko'rsatkichlarida ifodalash, keyin ularni yoppasiga maxsus hujjatlarda aks ettirishni ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda, korxona biznes-rejasini va kelgusidagi strategik dasturlarini tuzishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlashi va ularning bajarilishi ustidan amaliy ravishda nazorat olib borishi kerak. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi bo'yicha umumiyligi rahbarlik vazifasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi uslubiyati boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. Bu boshqarma dastlabki hisob masalalari bo'yicha xalq xo'jaligi tarmoqlariga umumiyligi rahbarlik qilib, buxgalteriya hisobi bo'yicha kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha ish olib boradi hamda dastlabki hisobning tipik shakllarini ishlab chiqib, nashr qildiradi, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy bo'lgan hisob va hisobot masalalari bo'yicha yo'riqnomasi, uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqadi. Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish bo'yicha metodologik rahbarlik ham Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi uslubiyati boshqarmasi tomonidan olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi bilan kelishilgan holda buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini, buxgalteriya hisobi va hisobotining tipik shakllarini, ulardan foydalanishga oid yo'riqnomalarni tasdiqlaydi, buxgalteriya hisobini yaxshilash va takomillashtirishga doir takliflarni joriy qiladi. Buxgalteriya hisobi — kundalik va umumiyligi ma'lumotlar olib maqsadida ayrim korxona, hissadorlik jamiyatni, muassasa, tashkilot va boshqalarning xo'jalik faoliyatini uzlusiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iboratdir. Buxgalteriya

hisobining maqsadi foydalanuvchilarni to‘liq, ishonarli, o‘z vaqtida tuzilgan moliyaviy va buxgalteriya hisobining boshqa axborotlari bilan ta’minalashdan iborat. Rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish uchun pul va moddiy vositalar ehtiyojiga asosan hisoblash, taxmin qilinayotgan daromad va mahsulotlar tannarxini rejalashtirish, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘llarini izlash. Ishlab chiqarish jarayoni va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning haqiqatda bajarilishi va biznes-rejalarda mo‘ljallanganini kuzatish, ya’ni xatti-harakatlar mo‘ljallangan rejaga qanchalik muvofiqligini belgilash. Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun korxona haqida to‘liq va ishonchli axborot bilan ta’minalashni bildiradi. Bu funksiya qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari korxona va tashkilot ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagilardan tashkil topadi:

1. Belgilangan reja topshiriqlari o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;
2. Moddiy mehnat va moliya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish;
3. Ichki ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash va ishga solish;
4. Korxona rahbari va ma’muriyatini hamda yuqori tashkilotlarni zarur hisobot ma’lumotlari bilan o‘z vaqtida ta’minalash;
5. Korxona mulkchiligining xavfsizligini ta’minalash;
6. Iqtisodiy tartibning amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish3 . Respublikamiz mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab bozor iqtisodiyoti talablari va moliyaviy hisobotning xalqaro andozalariga muvofiqlashtirish maqsadida buxgalteriya hisobi tizimi bosqichma-bosqich isloh qilib kelinmoqda, ushbu islohotni iqtisodiy, fuqarolik huquqiy sohada yuz berayotgan jarayonlar va buxgalteriya hisobini xalqaro miqyosda uyg‘unlashtirish zaruriyati taqozo etdi. Bozor iqtisodiyoti buxgalteriya hisobi faqat hisob yuritish siyosati va statistika vazifasini bajarib qolmasdan, balki manfaatdor tomonlarga rahbari, tashqi investorlar va foydalanuvchilarga asosan moliyaviy axborotga asoslanadigan samarali axborot tizimi zarurligi natijasida kelib chiqadi. Tahlil korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadida qaror qabul qilish uchun ilgari qabul qilingan strategiya va taktikasini baholash hamda tahlil qilish jarayonidir. Tahlil natijasida korxonada boy berilgan imkoniyatlar hisoblab chiqiladi, mavjud rezervlar hajmi belgilanadi, uskunalar, mehnat va xomashyo resurslaridan foydalanish darajasi oshadi, shuningdek, moddiy resurslar bilan uzlusiz ta’minalash yo‘lga qo‘yiladi. Xulasa qiladigan bo‘lsak, har bir byudjet tashkilotlari hisobotda aks ettirilgan joriy davr uchun va har bir oldingi davr uchun moliyaviy hisobotning o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan qismini har bir moddalar qatoriga kiritilgan tuzatishlar summasini amalda imkon ochiq ko‘rsatishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning byudjetdan ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasini va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, shtatlar jadvalini tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi bilan belgilangan.

Korxonalar – jamiyat ehtiyojini qondirish va foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar bajarish uchun belgilangan qonun asosida tashkil qilingan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lib hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida korxonalar to‘g‘risida”gi qonunda korxonalarning tashkiliy huquqiy shakllari belgilab berilgan. Ularning asosiyilari davlat, fermer, xususiy, oilaviy, mahalla, to‘liq shirkat, yopiq turdag‘i hissadorlik jamiyati, ochiq turdag‘i hissadorlik jamiyati, ijara, fermer xo‘jaliklari va boshqalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisob siyosatini to‘g‘ri tashkil qilish g‘oyat muhim

ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi sodir bo‘layotgan xo‘jalik jarayoni hamda muommolarini kuzatib va qayd etib qolmasdan, ishlab chiqarish rejasining bajarilishi ustidan tekshiruvni amalga oshira borib, rejalashtirish, nazorat qilish va iqtisodiyotni boshqarish ishida asosiy funksiyani bajaradi1 . Shu boisdan ham, hisob ishlarini tashkil qilish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo‘yilgan eng asosiy talab bu - uning kam xarajatli va sodda bo‘lishidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Buning uchun eng avvalo, har bir korxonaning o‘ziga xos tarmoq

XULOSA Ekspertiza – tuzilgan buxgalteriya hisobi hujjatlarini, hisob registrlari va moliyaviy hisobotlarni qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar talablariga mos kelish darajasiga baho berish bo‘yicha olib borilgan ish faoliyati. Inventarizatsiya – bu korxona aktivlari va majburiyatlarining haqqoniy mavjud holatini aniqlash, ularni hisob ma’lumotlariga mos kelishligini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ish faoliyati. Konsalting – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ularni qiziqtiruvchi turli bilimlar va amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha maslahatlarni berish borasida olib borilgan ish faoliyati. Kasbiy xizmatlar – bu auditorlik tashkilotlarining shartnomalar asosida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga hisobni yuritib berish, uni tiklash, soliq deklaratsiyalarini tuzib berish, biznes rejani tuzish va boshqa kasb ishlarini bajarib berish borasidagi ish faoliyati. Shunday qilib, yuqorida fikr va mulohazalardan kelib chiqgan holda audit va auditorlik faoliyatlariga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Audit - bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini davlat va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning manfaatlari nuqtai nazaridan qonunlar va va boshqa me’yoriy hujjatlarga mos kelishini ichki va tashqi nazoratdan o‘tqazish, tahlil va ekspertiza qilish, shuningdek konsalting va boshqa turdagи kasbiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimi.

REFERENCES

1. O’zbekiston respublikasi buxgaIteriya hisobining milliy standartlari BHMS. 21-sonli, Tarjimonlar: prof. A.Sotvoldiev va O.Masharipov. Toshkent – 2002.
2. Norbekov D. BuxgaIteriya hisobi nazariyasi. T.: «Iqtisod-moliya», 2006. 3. Sotivoldiyev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. T.: - 2002.
3. U. I. Inoyatov, S. D. Yusupova, F. R. Salimbekova. Buxgalteriya hisobi. Toshkent – 2011.
4. B.Xashimov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Toshkent – 2003.
5. K. B. Urazov. Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent – 2004.
6. Шарипова Нигина Джоракуловна, Джураев Искандар. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ. Эфиопский международный журнал многопрофильных исследований , 11 (04), 66–68.
7. Sharipova Nigina Jorakulovna. Maksudov Orif Shakirovich , (2023). THE IMPORTANCE OF MONETARY REFORMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 880–883.

8. Шарипова Нигина Джуракуловна Самаркандский институт экономики и сервиса Ассистент. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. Zenodo.
9. Шарипова, Н.Д. Акобиров, А.П., и (2023). ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. SCHOLAR , 1 (35), 66–73.